

# TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqsa boshlagan

№ 4 (66337)  
2002 yil 25 yanvar, juma

Sotuvda erkin narxda

2002 yil 27- yanvar O'zbekiston Respublikasi referendumi kuni

Oliy majlisning 2-chaqiriq  
7-sessiyasida 27-yanvar kuni  
umumxalq referendumi  
o'tkazilishi belgilandi.  
Referendumda Oliy Majlis

Bo'ston mahallalarida ham bu  
ishlar juda yaxshi olib  
borilmoxda. Referendum kuni  
oldidan maktabimizda tadbir  
bo'lib o'tdi. Tadbirda maktabimiz

berdilar.

Ular yig'ilganlarga  
referendum va undan joy olgan  
masalalar haqida tushuntirib,  
so'ng Bo'ston va Xuvaydo

## REFERENDUM OLDIDAN



parlementini 2 palatali qilish  
hamda prezidentning  
konstitutsiyaviy kafolatini 5  
yildan 7 yilgacha uzaytirish  
kabi masalalar o'rinni o'lgan.  
Barcha mahalalarda istiqomat  
qiluvchi aholiga referendum  
to'g'risida tushuntirish ishlari  
olib borilmoxda. Shu  
jumladan, Xuvaydo va

direktori Kozim aka Agzamov,  
Xuvaydo mahalla raisi Fotix aka  
Asqarov, Bo'ston mahalla  
qo'mita raisi Abdusalom aka  
Atametov va ma'naviyat ishlari  
bo'yicha o'rinos Farida opa  
Atametovalar ishtirok etishdi.  
Tadbirni maktabimiz direktori  
Kozim aka Agzamov o'chib

mahalla raislari o'z  
mahallalarida referendumga  
qanday tayyorgarlik ishlari  
olib borilayotgani haqida  
gapirib berdilar. Tadbirga  
tashrif buyurganlar  
referendum to'g'risida  
o'zlarini qiziqitrgan savollar  
bilan murojaat qilishdi.  
Yig'ilish juda katta bahs  
munozaralarga ulanib ketdi.  
Tadbir so'ngida yig'ilganlar  
27-yanvar kuni barchalari bir  
dam bo'lib ishtirok etishlarini  
ta'kidlab o'tdilar.

**Mahmudjon AZIMOV,**  
**Shayxontohur tumani**  
**169- maktabning**  
**5- «G» sinf o'quvchisi.**

Sinfoshlar  
davrasidagi kichik,  
ammo zehni, aqli, fikrashi  
bilan ajralib turgan bolajon  
diqqatimni tortdi. Ismi Sarvar  
ekan. Toshkentdagli 220-  
maktabning 9- «A» sinf  
o'quvchisi Sarvar bilan  
suhbatimni tengdoshlariga  
o'rnak bo'ladi, degan niyatda  
e'tiboringizga havola etishni  
lozim topdik.

- Sarvarjon, suhbatni  
noana'naviy savoldan  
boshasak. O'g'il va qiz bolalar  
do'st bo'lishi mumkinmi?

- Vaqtincha do'st bo'la oladi.  
Keyinchalik muhabbatga aylanib  
ketadi.

- Unday bo'lsa qizlardan  
do'stingiz bormi?

- Sinfimizda 15 nafar o'g'il bola,  
12 nafar qiz bola o'qyidi. O'g'il  
bolalar yaqin do'stilarim.  
Hammalari bilan yaqinmanu  
qizlardan Shahzoda, Feruza bilan  
do'stman. Feruza bilan ingliz tili  
mashg'ulotlariga birga boramiz,  
dars tayyorlaymiz, sirdoshmiz.  
Lekin bu do'stligimiz  
muhabbatga aylanmaydi.

- Sabab?

- Sinfoshim Feruzadan 2  
yosh kichikman. Onam  
Surayyo Ibragimova  
muallimalar, 5

yoshimda ular bilan birga  
mabitga chiqib yurardim, o'qish,  
yozishni bilganim uchun  
direktorimiz Zebo opa meni 1-

bahramand etuvchi Mazluma  
Abdullayeva 1- sinfdan to shu  
kungacha tarbiyachilik qilayotgan  
Qumri opa (oyi deb ataymiz)  
ustozlarimizni, ularning mazmunli  
darslarini orziqib kutaman.

sinfga olib kirdilar. Keyinchalik shu  
sinfda o'qib ketdim.

- Sinfoshlar ingizdan  
kichikligingiz sezilmay-  
dimi?

- Ko'rib  
turibsiz,  
bo'yim bilan  
se z i l a d i .  
O'qishlarim  
bilan sezilish-  
sezilmasligini  
ustozlarim  
aytishar.

- Aytgancha,  
q a y s i  
ustozlaringizni  
hurmat bilan  
tilga olasiz?

- Matematikadan dars beruvchi  
ustozim, sinf rahbarim Ma'rifikat  
Xudoyberanova, alifboni  
o'rgatgan birinchi ustozim La'lixon  
Zoitova, kimyo bilimdoni  
Gulchehra Abdullayeva, biologiya  
fanini o'rgatuvchi Shohida  
Jo'rayeva, adabiyot sehridan



- Sarvar, darsdan so'ng nima ish  
kilasiz?

- To'rt yil «uchqun»  
sport kompleksiga,  
tennisga qatnadm. Tennisda harakat,  
hushyorlik, qo'l kuchi  
yetakchi o'rinda turishi  
bilan menga yoqadi. Hozir esa haftada uch  
kun «Buloq» sport  
m a j m u a s i g a  
borayapman. Suzishni  
suv ustida, suv ostida,  
delfin usulida, kalla  
tashlash kabi turlarini

Sergey akadan o'rganayapman.  
O'g'il bola uchun sport birinchi  
o'rinda turishi kerak. U o'zini  
himoya qila bilishi, o'z kuchiga  
ishonishi lozim.

- Sarvar, adabiy tilda ruscha  
qo'shmay ravon gapirar ekansiz.  
Bu kimning ta'siri?

- Buvajonim Habibullo  
Bektemirov Vazirlar Mahkamasi

«Tong yulduzi» gazetasining  
hurmatli o'quvchilar!

Xalqaro Oizil Xoch  
Qo'mitasining (XQXQ) Markazi  
Osiyodagi mintaqaviy  
Vakolatxonasining ta'lim dasturlari  
bo'limi umumiy o'rta ta'lim  
makteblarining 11-

s i n f  
o'quvchilar,  
akademik  
litsey va  
k a s b -  
hunar kollejlarning talabalariga  
mo'ljallangan «Men insoniylikni  
qanday tushunaman?» tanloving  
yakunlarini chiqaradi. Tanlov  
yakuniga ko'ra - birinchi o'rinni  
Jizzax viloyatidan Komila Ibodova;

- ikkinchi o'rinni Toshkent  
shahridan Yevgeniy Kornilov;  
- uchinchi o'rinni esa Andijon  
shahridan Ulug'bek Ortiqovlar  
egalladi.

XQXQning Markazi Osiyodagi  
Mintaqaviy Vakolatxonasi ta'lim  
dasturlari bo'limi va «Tong  
yulduzi» muharririyati hamda  
«Inson va jamiyat kursi bo'yicha  
qo'shimcha o'quv  
qo'llanmasi»ning mualliflari  
g'oliblarni samimi tabriklab,

### Tanlov yakunlari

o'qishlarida katta  
muvaqqafiyatlar, sog'lik, baxtsa-  
saodat tilaydilar.

Tanloving yakunlovchi  
bosqichida XQXQning  
Markazi Osiyodagi Mintaqaviy  
Vakolatxonasi

ta'lim dasturlari bo'limi boshlig'i,  
XQXQ delegati janob David-Pyer  
Marke va ushbu bo'limning  
xodimlari, «Tong yulduzi» va  
«Klass» gazetalarini muharrirlari  
hamda g'oliblarni ishtirokida davra  
suhbati o'tkazildi. Janob David-  
Pyer Marke hozirgi davrda  
XQXQning turli mintaqalarida  
qurolli mojarolar paytidagi  
faoliyati, XQXQ ta'lim dasturlar  
bo'limi tomonidan Markazi Osyo  
respublikalarida olib borilayotgan  
ishlar haqida qiziqarli ma'lumot  
berdi. Davra suhbati paytida  
g'oliblarga qimma baho sovrinlar  
topshirildi.

4- sahifani o'qing va  
bilimlaringizni kengaytiring.

tovuq, kurka,  
tipratikan boqish.  
Hayvonot olamini yaxshi  
ko'raman.

- Toshbaqa boqqan ekansiz,  
hozir ham bormi?

- Javobini ayam aysalar yaxshi  
bo'lardi. Toshbaqamni ayam  
yoqtirmaydilar. Oq'oz qutida  
boqayotgandim, hadeb  
qitirlataveradi, keyinchalik  
hovlida boqarsan, derdilar. Bir kun  
kelsam, toshbaqa yo'q. Qani,  
desam, kasal bo'lib qoldi,  
shifoxonada,  
d e d i l a r .  
Shifoxonadan  
q a y t i s h i n i  
kutayapman.

- Sarvarjon,  
kelgusida kim  
bo'lmoxchisiz?  
- Dadajonim bir  
necha do'konni  
boshqaradilar. Ishbilarmon, tinib-  
tinchimas insonlar. Ularga havas  
qilaman, kelgusida ota kasbini  
davom ettirib xalqimiz  
dasturxonini to'kin-sochin qilish  
niyatidaman.

Sarvarjon kabi bolajonlar ko'p  
bo'lsa, o'zbek xalqi shuhrat  
yanada oshadi.

Suhbatdosh:  
Gulyuz VALIYEVA.



Kontshur

Kontshur

Kontshur

# TONG★YULDUZI

## SHE'RIYAT SO'QMOQLARI

### ADABIYOT DUNYOSIGA SAYR

Odamzotni insoniylikka da'vat etadigan, o'qimishli va dono qilib tarbiyalaydigan ustozlar biz uchun ma'naviy ota-onadir. Shunday ekan, men qalb me'mori - ustozim haqida so'z yuritmoqchiman.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchim, sinf rahbarim Xurshida opa Safayeva o'z kasbining mohir ustasi. Ular darsni qiziqarli o'yin tarzida o'tkazadilar. Adabiyotning sirli dunyosiga sayr qildiradilar. Ona tilidagi qoidalarni suv qilib ichiradilar. Ayniqsa, ularning jonkuyarligini aytmaysizmi? «Hozir o'tayotgan mavzularni umrbod eslab qolishingiz shart, - deydilar Xurshida opa, chunki oliy o'quv yurtiga kirmoqchi bo'lsangiz, test savollari darsliklar asosida tuzilgan bo'ladi. Bularni bilmasangiz, ko'zlagan maqsadingizga yetishingiz mushkul». Shunday ekan, keling do'stlarim, muallimlarimizning aytgan gaplaridan chiqmaylik. Ularning mehnatlarini qadrlab, yutuqlarini olqishlaylik.

Gulasal  
MAHMUDOVA,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon  
tumanidagi  
61- maktabning 7-  
sinfo'quvchisi.



Menga she'riyat so'qmoqlaridan o'tishimga, nazm chashmasiga oshno tutinishinga oq yo'l tilagan ustozim Nazira Hamdamova bo'ladi. Ular viloyat gazetalariga ham yo'llanma bergenlar. Bir necha bor mashqlarim bosilib chiqdi. Maktabimizdagi «Nihol» to'garagi a'zosiman. Endi Respublika miyisosidagi tengdoshlarimga qalb amri, ko'ngil dardi, yurakning o'tli hayqiriqlari bilan yozilgan she'rларимни havola qilmoqchiman.

Armon qilmas edim hech, Xalqimga tegsa foydam. Sho'x qo'shiqlar kuylardim, Shodlikka to'lsa olam.

Mayli, men gul bo'lardim, Uzib olsin odamlar. Shu gulni ko'rib dildan, Quvilsa dardu g'amlar.

Mayli, tuproq bo'lardim, Undiolsam bir giyoh. Mayli, men suv bo'lardim, To'yinsin jumla dunyo.

Qalbimda ezgu tilak, Yuzlarda bo'lsin kulgu. Men insonlar qalbida, Shodlik bo'layin mangu.

*Gulruh XUDOYBERDIYEVA,  
Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi «Hazora» shirkat  
xo'jaligidagi 9- maktabning 10- sinf o'quvchisi.*

## XATLAR TEGIRMONI



### OTA - ONAM QUVONCHIM

Ota-onam quvonchim, Mening jonusi jahonim. Qo'llariga gul tutay, Shirin so'zlarim aytay.

Quvonchli kunlarimda, Men baxtiyor bo'laman. Sochlarni silab men Yuzlaridan o'paman.

Ota-onam quvonchim Mening jonusi jahonim.

*Madina AKBAROVA,  
Farg'ona viloyati,  
Quva tumanı,  
44-o'rta maktabning  
8- «A» sinf o'quvchisi.*

## TARIX OYLIGI

2001 yilning dekabr oyi biz uchun juda yaxshi o'tdi. Chunki bizning litseyimizda 1 dekabrdan 31 dekabrgacha tarix oyligi nishonlandi. Bizning sifsdan ham huquq sanidan ochiq darslar bo'lib o'tdi. Tarix darsida sayohatga bordik. Biz bu oylikda buyuk bobokalonlarimiz, ulug' allomalarimizni yodga oldik. Sinf bilan birgalikda kattagina «Vatan tarixi» deb nomlangan kitob yaratdik. Uning ichiga tarixiy shaxslar haqidagi bitiklarni kiritdik. Biz tarixga nazar solib, qadimgi davrga ham sayohat qildik. Tarix oyligida turli xil savol -javoblar, babs munozaralarda ishtirot etdik. Bulardan biz bilmagan narsalarimizni bilib oldik.

*Kamola USMONOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Respublika  
Nafis san'at litseyining 10- tarix sinf o'quvchisi.*

## ZAMONAVIY O'ZBEK QIZLARI

O'zbek qizlari deganda ko'z oldimizga nafis qomatli milliy o'zbek ko'ylagini kiygan, sochlari uzun, shirin so'z, chiroylinafaqat tashqi dunyosi, balki ichki dunyosi ham go'zal bo'lgan qizlar gavdalanadi. Aslida ham shunday-da. O'zbek milliy ko'ylagini kiymasa-da, egnidagi ko'y lagi o'ziga yarashgan bo'lsa, qilayotgan muomalasi, kattalarga hurmati, umuman yurish-turishi bilan o'zgalarga o'rnak bo'layotgan qizlar bilan faxrlansa arziydi kishi.

Ammo guruch kurmaksiz bo'limas ekan-da. Ko'cha-kuyda baland ovoz bilan gapirib, moda ketidan quvlab, ochiq-oydin kiyinayotgan o'zbek qizlarini ko'rib «tasanno» degim kelar gohida. Balki ularning bu yurishlari o'zlariga bilinmas, lekin bunday ko'rinishlar, atrofidagi kishilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



## AJQIB MUHIT

Sharofat opa, Hurmatoy opa, Mashhura ingliz tilida nishonladik. Unga o'rmon hayvonlari, yalmog'iz, qaroqchilar hamda lo'li qizlar tashrif buyurishdi. Ularning she'r va qo'shiqlari, go'zal raqslari bayram ko'rkiга ko'rk qo'shdi. «Santa Klaus» barchamizga sovg'a berdi.

Bundan tashqari biz bayramga boshqa maktab, litsey va gimnaziyalarning ingliz tili o'qituvchilarini ham taklif qildik. Kecha hammaga manzur bo'ldi.

Feruza  
ABDUAZIZOVA,  
Andijon viloyati,  
Ulug'nor tumanidagi  
16-litseyning 6- sinf  
o'quvchisi.



Dilnozabonu  
Toshkent Pedagogika kolleji talabasi.

Taniqli rejissyor Shavkat Mahbubov 33 yildan buyon O'zbekiston oynayi jahonida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ijodkor. M.Uyg'ur nomidagi san'at institutida ta'lim olgan, sahna va ekran sirlarini o'rgangan. Oliy toifadagi televide niya va kino rejissori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Chorak asrdan buyon harbiy vatanparvarlik mavzusidagi hozirgi nomi «Vatanimga xizmat qilaman» televizion jurnalida muntazam rejissyorlik qilib keladi. Bir necha yil muddat «O'zbektelefilm» ijodiy uyushmasiga rahbarlik qildi. Bir-birdan mazmunli va qiziqarli «Men balerinaman», «Qo'shiq bag'rimda jaranglasin», «Bir tomchi suv qadri», «Davomat», «Shohsupaga yo'l» singari saksonga yaqin hujjatl filmlar va film-konsertlarni tasmalarga tushirdi. Orol dengizi muammolariga bag'ishlangan «Orol atrofida», «Qumlar tilga kirganda» telefilmlari «Inson va dengiz» xalqaro festivalida muvaffaqiyatlari qatnashib diplom va sovrinlarni qo'lga kiritdi. 2000-2001 yillarda yaratgan ko'p qismli «Sardor» va «Ostona» badiiy filmlari katta shuhrat qozonib, biri sakkiz marta, ikkinchisi qisqa davrda uch marta takror namoyish etildi. Bultur O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi va Mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Qurolli kuchlarning 10 yilligi oldidan «Vatan himoyasida» deb nomlangan

tanlov e'lon qilingan edi. «Sardor» va «Ostona» filmlari uchun teatr va kino san'ati yo'nali shidagi

olqishlar bilan kutib olishar, qayta-qayta sahnaga taklif

shogirdlariga erkin ijod muhitini yaratib bergan edi. SH.

Mahbubov birinchi kursni bitirgach, harbiy xizmatni

ilan harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi telejurnalga rejissyorlik qila boshladi.

Oyinchiliklardan, ta'na-dashnomlardan cho'chimadi, orqaga qaytmadi.

Tomoshabinlarning mehr-muhabbati, mutaxassislarining xolis fikrlari, e'tiroflari, ijodiy yutuqlar uni olg'a boshlayverdi. Ijodiy bahslar, tortishuvlarda toblanib boraverdi. Mehnatning tagi rohat, deganlaridek yillar o'tib, taniqli ya e'tiborli rejissyor bo'lib elga tanildi.

Oynayi jahon zahmatkashlaridan biri Shavkat bobo Mahbubov shu kunlarda 60 yoshlik to'yini nishonlayapti.

Ijodingizga baraka, o'zingizga mustahkam sog'liq tilaymiz, Shavkat bobo.

**Mirza Anvar KARIMOV.**

# DENGILGANCA TOLE YOP

mukofot rejissyor

Sh. Mahbubov hamda

ssenariyi mualifi

Yu.Roziqovlarga nasib etdi.

Tanlovdan kuzatilgan

maqsad, o'sib

kelayotgan yosh

avlodni va Qurolli

kuchlar shaxsiy

tarkibini harbiy

vatanparvarlik

ruhida tarbiyalash,

ularning ijtimoiy,

siyosiy, ma'naviy,

axloqiy tafakkurini

yuksaltirishdan

iborat edi. Mazkur

filmlar shu

talablarga to'la javob

bergani uchun ham Vatanimiz

Qurolli kuchlarining 10 yilligini

nishonlash arafasida oynayi

jahon ziynatiga aylandi. Mustaqil

davlatimizning Qurolli kuchlari

Vatan himoyachilari bilan

faxlanish g'ururini qalblarimizda

jo'sh urdirib yubordi.

O'zishidan qoniqmaslik, ijodda yangi-yangi cho'qqilarni zabt etishga intilish Sh.Mahbubovni peshqadam rejissyorlar safiga olib chiqdi. Bolalik chog'ida, boshlang'ich sinflarda o'qib yurgan kezlari qalbida teatr san'atiga otashin muhabbat alanga oldi. U mahorat bilan ijro etgan rollarni tomoshabinlar

qilishar edi. 1959 yilda o'rta maktabni tugatib bir olam orzular bilan Toshkentga kelib Aviasozlar zavodiga ishga kirdi. Toshkent teatr va rassomchilik institutining

o'tashga chaqirildi.

Harbiy qismida u havaskorlik to'garagini tashkil

qildi. Bir qator hayotiy obrazlarni sahnaga olib chiqdi.

IXcham sahna asarlariga rejissyorlik

qildi. Uch yildan keyin harbiy xizmatni o'tab

yanajon zavodi va institutiga qaytib keldi.

Taniqli pedagog va ressyorlar

A.Sayfiddinov, M.

Mahammedovlar qo'lida o'qishni

davom ettirdi. Institut

sahnasi da

«Qutlug'

qon» spektaklini yaratgan Yo'ichi,

«Tanya»dagi German,

«Uylanish»dagi Jevakin obrazlari ustida ishlash

yosh ijodkor uchun bir maktab bo'ldi. 1969

yilda institutni tugatgach, ustozni

M.Mahammedov tavsiyasi bilan televide niyoning

«Yoshlik» studiyasida rejissyor assistenti lavozimida ish boshladı.

Oradan ko'p o'tmay iqtidorli va fidoyi inson

- jurnalist Irina Grishina



## JIRAFAGA MAZZA-DA!

Sho'xlik, to'polon bilan,  
O'tar uning har chog'i.  
Ustozlardan dakkib yeb,  
Cho'zilardi qulog'i.  
Uyda ham ukalarning,  
Oromini buzadi.  
Ota-onal tomondan,  
Qulog'i cho'ziladi.  
«Jirafaga mazza-da»,  
O'zicha o'ylar Hakim.  
«Sho'xlik qilsa qulog'in,  
Tortolmaydi-da hech kim»...

**Jahongir FOZIL,  
Farg'ona viloyati,  
Bog'dod tumani,  
Ultarma qishlog'i.**



## YASHAYMAN


Yashayman hayotda men chaqmoq bo'lib,  
Tutagan qalblarda o't yoqmoq bo'lib.  
Yashayman dengizday tez oqmoq bo'lib,  
Haqiqat ko'ziga tik boqmoq bo'lib.

Yashayman dengizday mavjlanib, to'lib,  
G'ayrat, shijoatga borlig'im cho'mib.  
Poklikka, soflikka qo'l cho'zganlarni  
Yashayman men otashin bag'rimga ko'mib.

Gul bo'lib yashayman, bevaqt so'lmay,  
Hayotda o'rinsiz, mazmunsiz bo'lmay.  
Yashayman xalqimning keragi bo'lib,  
Hayotda adashganlar tirkagi bo'lib.

Yashay o'tkir tig'li qalamim bilan,  
Badfe'l nokaslarga alamim bilan.  
Nohaq illatlarni chizib tashlayman,  
Qora ko'ngillardan o'zib yashayman.

**Gulchehra TOJIBOYEVA,  
Andijon viloyati Buloqboshi tumani,  
2 - maktab o'qituvchisi.**



## Ustozlaringiz ijodidan

### MEHRIBON QIZCHA

Aya, aya, ayajon,  
Qalbim to'la hayajon.  
Sochlaringiz silayman,  
Sizga to'zim tilayman.

Mehnat qilib tinmaysiz,  
Maktabda ham, uyda ham.  
Boshimni ham silaysiz,  
«Sog' bo'l, bolam, bo'Ima kam!»

Non yopasiz azonda,  
Goho kirlar yuvasiz.  
Olov yoqib qozonga,  
Chuchvaralar tugasiz.

Aya, aya, ayajon,  
Dam olingiz siz biroz.  
Men ham bajarib qo'yay,  
Ishingizni ozu-soz.

Supuraman hovlini,  
Sepib qo'yay suvlarni.  
Idishga suv to'ldiray,  
Oyi, yana ne qilay?

Aytib turing siz ishni,  
Bajarayin bir o'zim.  
Siz meni maqtab turing  
«Esli qiz, dastyor qizim.»

Yozayin men dasturxon,  
Siz bo'ling mehmon-mehmon.  
Tuzab qo'yay qandu-non,  
Men bo'lay saxiy mezbon.

Oldin qo'lim cho'zmayman,  
Qanddan ko'zim uzmayman.  
Boshlang, oyi, siz tezroq,  
Odobni men buzmayman.

Aya, aya, ayajon,  
Qalbim to'la hayajon.  
Sizga sog'liq tilayman,  
Sizga to'zim tilayman.

**Maqsudaxon  
MAMADALIYEVA.**

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (XQXQ) beg'araz, betaraf va mustaqil tashkilot bo'lib, uning faqat insonparvarlikdan iborat bo'lgan missiyasi (vazifasi) urush qurbanlarining, shuningdek, mamlakatdagi ichki zo'ravonlikdan aziyat chekkalarning hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatishdan iboratdir. U harakat tomonidan qurolli mojarolar paytida amalga oshiriladigan xalqaro yordam operatsiyalariga rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari, insonparvarlik huquqi va universal insonparvarlik tamoyillarini targ'ib qilish va mustahkamlash orqali u kishilarning azob-uyubat chekishlarining oldini olishga intiladi. 1863 yilda asos solingen XQXQ Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Xalqaro Harakatining sarchashmasini tashkil qiladi.

Biron kishi nafas ololmayotganda, qon oqishi to'xtamayotganda, hushini yo'qotganda yoki zaharlanganda nima qilish kerakligini bilsangiz va harakat qilsangiz, uning hayotini saqlab qolishingiz mumkin.

1. Atrofga qarang va o'zingiz uchun ham, bemor uchun ham yangi xavf-xatar yo'qlig'iga ishonch hosil qiling.
2. Iloji bo'lsa, jabrlanuvchini ko'zdan kechirmagunlaricha yotgan joyidan qo'zg'atmang. Agar uni boshqa joyga ko'chirish zarur bo'lsa, buni niyoyatda ehtiyojkorlik bilan qiling.
3. Agar jabrlanuvchining ko'ngli behuzur bo'layotganini ko'rsangiz, yonboshlatib qo'ying. Aks holda u nafas ololmay qolishi mumkin.
4. Agar u nafas olmayotgan bo'lsa, sun'iy nafas oldiring.
5. Jabrlanuvchi sovuq qotmasligi uchun ustini yoping, yomg'ir va qordan to'sing.
6. Jarohatlangan organni bog'lab, qimirlamaydigan qilib qo'ying.
7. Boshqa joyga olib borishning eng maqbul usulini tanlang.
8. Mumkin qadar tezroq malakali yordam chaqiring.

### HUSHDAN KETISH

Jabrlanuvchi hushdan ketganiga ishonch hosil qiling.

Agar u hushini yo'qotgan bo'lsa, nafas olayotgan yoki nafas olmayotganini aniqlang.

Agar u nafas olmayotgan bo'lsa, uni tezroq o'ziga keladigan qilib yotqizing.

Agar nafas olmayotgan bo'lsa, uning bo'g'zini bo'shating.

Uning pastki jag'ini oldinga surib, boshini orqaga shunday engashtiringki, natijada dahani burnidan yuqorida bo'lsin. Tilini bo'g'zi yopilib qolmaydigan qilib oldinga torting.

Jabrlanuvchi nafas ola boshlamasa, unga sun'iy nafas oldiring:

- burnini yoping;
- ichingizga havo oling;
- og'zingizni uning og'ziga qo'yib, har besh soniyada bir marta uning o'pkasiga havo kiritig.

### QON OQISHINI TO'XTATISH

**Bog'lash.** Deyarli har qanday qon oqishini jarohatga bir necha qavat toza latta bosib to'xtatish mumkin. Yaraga latta qo'yib, uni qattiqroq tortib bog'lang.

**Jabrlanuvchini biroz ko'tarish.** Yaradorni shunday ko'taringki, uning yarasi yuragidan yuqorida bo'lsin. Agar jarohat bosh yoki bo'yinda bo'lsa, uning boshi va yelkalarini ko'taring.

### TOMIRNI SIQIB QONNI TO'XTATISH

Agar qon oqishi to'xtamasa, jarohatdan yuqori qida arteriya ni suyakkacha bosib, siqib qo'yish kerak.

**Qo'lda.** Qo'ltiq bilan tirsak

oralig'ida.

**Oyoqda.** Son bilan tana orasidagi bukiladigan joyda (oyoqning o'zida ems).



### BOVLIQ(JGUT)LAR XAVFLI!

Ularni boshqa iloj qolmagan hollardagina ishlating.

1. Eni kamida 5 sm.

keladigan matodan bovlinq tayyorlang (arqon, neylon, ayollar paypog'i, simdan foydalangan mang).

2. Bovliqni yaradan yuqoriqqa, qo'l (yoki oyoq)ning shikastlanmagan qismiga shunday qo'yinki, uni

tortib bog'laganda sirpanib, chiqib ketmasin.

3. Matoni qo'l (oyoq)ga ikki marta o'rab, uning bir uchini ikkinchisi ustiga qo'ying, keyin ikkala uchini bir-birining ostidan o'tkazing.

4. Kalta, mustahkam tayoqcha olib, uni yarim tugunga ko'n d a l a n g qo'ying hamda matoning ikkala uchini tayoqcha ustiga chiqarib tugging.

5. Tayoqchani aylantirib, bovlinqi taranglashtiring. Uni qon oqishi to'xtamaguncha aylantiring.


6. Bir parcha matoni tayoqcha uchiga tugib, uni qo'l (yoki oyoq)ga bog'lab qo'ying. Bunda tayoqcha orqaga aylanib, bovlinq bo'shashib ketmasligi kerak.

### KO'KRAK QAFASI YARALANIB, TESHILISHI


Agar o'q yoki boshqa o'tkir narsa ko'krak qafasini teshgan bo'lsa, nafas olgan va chiqargan vaqtida hushtakka o'xshash ovoz chiqadi. O'pka kollapsi yuz bermasligi uchun teshikni yopish zarur.

Uni qo'l, polietilen xalta, leykoplastir yoki bir necha qavat qilib taxlangan toza mato bilan yopish mumkin.


Yarador hushini yo'qotgan yoki yo'qotmaganidan qat'iy nazar, uning jarohatlangan tomonini pastga qilib yonboshlatiladi.



### YARANI BOG'LASH



### QIMIRLAMAYDIGAN QILIB QO'YISH



### QORIN BO'SHLIG'I YARALANISHI

Jarohatga toza mato bosing. Agar ichaklar yoki boshqa ichki a'zol a r tashqariga osilib qolgan bo'lsa, ularni joyiga qaytarishga urinmang.

Yaradorni imkon qadar qulayroq yotqizing. Oyoq tizzalarini bukip, ostiga o'ralgan to'shakcha qo'ying. Shunday qilinganda qorin bo'shlig'i devoriga tushadigan bosim kamayadi.

Jabrlanuvchiga suv ham, ovqat ham, sigaret ham bermang. Hatto o'zi so'rasa ham, bu narsalarni berish mumkin emas.

### ELEKTR TOKI URISHI

Elektr tokini o'chiring. Agar buning iloji bo'lmasa, elektr simini biron xavfsiz narsa bilan jabrlanuvchidan olib tashlang. Bu narsa tok o'tkazmaydigan buyum bo'lishi kerak. Bunday hollarda tayoq, buklangan gazeta, rezina tagcharmla poyafzal, kedalar, kiyim kabilardan foydalanish mumkin, lekin ular quruq bo'lishi shart. Tokni o'chirmaguningizcha yoki simni olib tashlamaguningizcha jabrlanuvchiga aslo tega ko'rmang.

Jabrlanuvchi nafas olmayotganiga, nafas yo'llari bo'shligiga ishonch hosil qiling. Zarurat bo'lsa, unga sun'iy nafas oldiring.

Agar jabrlanuvchi hushsiz yotgan, lekin nafas olayotgan bo'lsa, uni xavfsiz holatda yotqizing.

Ehtiyoj choralar:

Elektr bilan ishlaganda qo'llaringiz albatta quruq bo'lsin. Hech qachon ho'l pol, kursi yoki stoldagi elektr asboblardan foydalanmang.

### KUYISH

- kuygan joylarga faqat toza sovuq suv quyish mumkin. Og'riq susaymagunicha, taxminan o'n daqqa davomida yaraga suv oqizib turing;

- kuygan terida chiqqan pusifikni hech qachon yormang;

- hech qachon kuygan joyga yopishib qolgan kiyimni ajratib olmang;

- jabrlanuvchiga ko'p suyuqlik ichiring. Masalan: shirin choy, meva sharbat, suv (bir litriga ikki choy qoshiq tuz aralashtiriladi).

Hushdan ketgan odamga hech qachon suv ichirishga urinmang.




Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining «Birinchi yordam» kitobidan olindi.



## Aziz bolalar!


*Aqlingizni charxlab bilimingizga bilim qo'shadigan Foziljon akangizni yaxshi taniysiz-a? Ha, F.Oripov uzoq villardan beri mamlakatimiz matbuotida o'zining krossvord, chaynvord, topishmog'u jumboqlar hamda so'z o'yinlari bilan o'quvchi diqqatini tortib, mehrini gozona olgan ijodkordir. Foziljon Oripovning qizi tengdoshingiz Kamolaxon bu yil Toshkent madaniyat kollejiga o'qishga kirdi va otasining «xatolari»ni topib, topishmoqlariga hozirjavoblik gilishi o'larog o'zi ham sevimli «Tong yulduzi» gazetasiga krossvordu chaynvordlariga so'z o'yinlarini qo'shib, sahifa tayyorlab kelibdi. Kamolaxonga minnatdorchilik bildirgan holda siz aziz bolalardan jumboqlar javobini kutib qolamiz. O'ylaymizki, bundan ruhlangan Kamola Oripova o'zining yangi boshqotirmalari bilan o'quvchilar diqqatini tortadi va otasi kabi mehrini qozona boradi.*



## SO'Z O'YINI



Shaklda berilgan «kun» so'zining har safar bittadan harfini o'zgartira borib, bo'sh kataklarga yozing. Eng so'ngida «yil» so'zi hosil bo'lsin.

## Boshqotirmalar



## MUSIQIY JUMBOQ

Chizmadagi musiqa asbobi nomi bilan tugallanadigan uchta cholq'u asbobi nomini topib, raqamli xonadan boshlab yozing.




## CHIZIQLARDAGI JUMBOQ

Chizmaning yuqori qismi - jumboqning «ochqich»i hisoblanadi. Pastki qismdagi barcha kesishgan chiziqli aylanaga o'xshash joyni ochqichdan aniqlab, harflar bilan almashtirib, jumboqni hal eting. Bunda qatorlar bo'yicha mumtoz mutasakkir shoir Nizomiy Ganjaviy merosiga mansub ikki misra hikmatli so'zları ayon bo'ladi.

## “A” HARFLI CHAYNVORD

- |   |          |                                  |                       |   |  |                     |                       |   |  |                                      |                                       |                      |  |                              |                                   |                    |            |           |                 |                                     |                            |   |                            |   |   |
|---|----------|----------------------------------|-----------------------|---|--|---------------------|-----------------------|---|--|--------------------------------------|---------------------------------------|----------------------|--|------------------------------|-----------------------------------|--------------------|------------|-----------|-----------------|-------------------------------------|----------------------------|---|----------------------------|---|---|
| 1.Yer sharini o'rab olgan va u bilan birga aylanuvchi havo qobig'i. | 2.Qit'a. | 3.Tikuvchi foydalanadigan anjom. | 4.Suvoqchilik asbobi. | 5.Qishloq xo'jaligi ekinlari parvarishi majmui. | 6.Taniqli o'zbek direjyor ayoli, xalq artisti. | 7.Bayram oldi kuni. | 8.Yevropadagi davlat. | 9.Organizmning tuzilishi to'g'risidagi fan. | 10.Farg'onalik ustoz muallim, O'zbekiston xalq o'qituvchisi. | 11.Sirk san'atiga monand sport turi. | 12.Janubiy Amerikadagi cho'li hududi. | 13.Onalar qo'shig'i. | 14.Binokorlikda qo'llaniladigan temir sinch. | 15.Koinotni o'rganuvchi fan. | 16.Yer sharining shimoliy hududi. | 17.Eng ulkan ilon. | 18.Daraxt. | 19.Qit'a. | 20.Yaqin kishi. | 21.Isbotsiz qabul qilingan haqiqat. | 22.Matematika fani sohasi. | 23.Buxoro hukmdori Abdulloxon II ga bag'ishlab muarrih Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan 1584-90 yillarda yozilgan nodir asar. | 24.Havo transporti majmui. | 25.Apenning va Bolqon yarim orollari oralig'da joylashgan dengiz. | 26.Uchburghak shaklidagi qadimiy tirnama musiqa asbobi. |
|---|----------|----------------------------------|-----------------------|---|--|---------------------|-----------------------|---|--|--------------------------------------|---------------------------------------|----------------------|--|------------------------------|-----------------------------------|--------------------|------------|-----------|-----------------|-------------------------------------|----------------------------|---|----------------------------|---|---|



Yaqinda Sobir Rahimov tumanida joylashgan 46- o'rtalik mabtabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari va uslubshunoslari uchun tuman kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda ko'plab maktablarning o'qituvchilari ishtirok etishdi. Ma'mura Yormuhamedova rahbarligidagi mabtab jamoasi mehmonlarni juda iliq qarshi olishdi. Kengashning tashkili masalariga tuman Xalq ta'limi uslubshunosi Farida opa bosh-qosh bo'ldilar.

Tadbirga kelgan mehmonlar birinchi navbatda mazkur maktabning 1- «B»

sinf o'quvchilari ishtirokida «Alifbe bayrami»da qatnashishdi. Bolajonlarning sahnadagi chiqishlari, o'zlarini erkin tutishlari ushbu sinfning jonkuyar rahbari savodxonlik bayramiga ishtiyoq bilan

hamisha hukmron. Matematika darsini «Robinzon Kruzo oroliga safar» noan'anaviy tarzda o'tkazishdi. Qaroqchilar, hindular hujumi, ularning adadi, qutulish yo'llarini matematik

tayyorgarlik ko'rganligini isbotlab turardi.

Yoqutxon Dadaxo'jayeva rahbarlik qilayotgan 3- «A» sinfida matematikadan ochiq dars bo'lib o'tdi. Undagi o'quvchilar bilan o'qituvchi munozalarini, muomalalarining go'zalligini ham ta'kidlash joiz. Chunki ular o'zaro faqat «siz»lab gapirishar, ismlarga esa «xon», «bek» qo'shimchalarini qo'shib murojaat qilishardi. Bunday ilqlik bu sinfda

jumboq asosida tashkil qilishibdi. Undan tashqari ko'p sarguzashtlar shohidi bo'lgan mehmonlar darsga yuqori baho berishdi.

Keyingi sinf 1- «A»da esa «Odobnoma»dan ochiq dars edi. Sinf rahbari Munavvar Isroilovani o'z onasidek ko'radigan o'quvchilar «Vatanni sevmoq iymondandir» mavzusidagi darsni hamisha xotirlab yurishsa kerak. Chunki haqiqiy odob-axloqdan nazariy

emas, amaliy mashg'ulot bo'ldi. Maktabning faol o'qituvchilaridan L. Sodiqova 4- «B» sinfida ona tilidan, M. Isayeva 4- «A» sinfida

yaqqol namoyon etishdi. Darslarni ko'rgazmali tarzda o'tishida boshlang'ich sinflar bo'yicha maktab ilmiy bo'lim mudiri Halima opa Mashupinaning ham ulkan hissalarini qo'shilgan.

Sobir Rahimov tumanidagi 46- o'rtalik mabtabning ahil jamoasiga omadlar yor bo'lishini, yosh barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berishda, kelgusida istiqolga erishgan hur diyormizning bundanda rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlariga biz ham tilakdoshmiz.

Nargiza

ABDULLAYEVA.

Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik-litseyida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 65 yilligiga bag'ishlab uchrashuv

o'tkazildi. Kechada TDTU rektori Q.R. Allayev, universitet rektori o'rinnbosari A.A. Nizomtdinov va boshqa m e h m o n l a r ishtirok etdilar.

Kecha avvalida 1 i t s e y o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan E. Vohidovning hayotvaijodyo'li aks etirilgan hujjatli film namoyish qilindi. So'ngra litsey o'quvchilari shoirning she'rlaridan namunalari o'qidilar, sahna asarlaridan parchalar namoyish qildilar.

Litseyning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi G. Sobitova shoirning serqirra ijodi haqida to'xtalib, uning Vatan mavzusidagi she'rlari haqida shunday fikr bildirdi:

- Ushbu kechani tashkil qilganlarga katta rahmat. Ayniqsa, meni bolalikka qaytargan,

hayot y o ' l i m n i j o n l a n t i r i b b e r g a n f i l m m e n g a j u d a y o q d i .

Endi men O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchisi bo'lgan aziz farzandlarimga mur oja a t qilmoqchiman. A z i z f a r z a n d l a r i m ! Siz O'zbekistonim i z n i n g kelajagidirsiz. Siz l a r d a n umidimiz juda katta. Sizlarga ota sifatidagi nasihatim shuki, ko'proq o'qing, o'rganing. Qiyinchiliklardan qo'r q mang . A d a b i y o t ,

she'riyat olami hamisha Sizlarga hamroh bo'lsin!

B.MUHAMMADXO'JAYEVA,  
G.TOJIYEVA,  
TDTU qoshidagi  
Chilonzor akademik-  
litseyining adabiyot  
fanı  
o'qituvchilari.

ko'tardi. Vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda shoir she'rlarining ahamiyati beqiyosdir.

Shundan so'ng yig'ilganlarning gulduros qarsaklari ostida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, Oliy majlis deputati Erkin

«Dunyon muhabbat ushlab turadi», deyishadi. Kishi atrofida yaxshi odamlar borligini bilib yashasa, qalbida sevinch, ruhida yengillik paydo bo'лади.

Men sizlarga ustozim haqida gapirib bermoqchiman. Ular shahrimizning interneshnl xauz - Toshkent litseyidagi fidoyi o'qituvchilardan biri, rus tili va adabiyot hamda din tarixi darslaridan saboq beruvchi Feruza Ibragimovadir. Do'stim desam

USTOZ OLDIDAGI QARZ h a m yanglishmayman. Yoshimiz katta farq qilsa-da, ular meni doim o'zlariga yaqin tutadilar.

Bayram kuni edi. Xiyobonda oyijonim bilan aylanib yurib, o'qituvchimni ko'rib qoldim. Ularning ham yonlarida onalari bor edilar. Men oyijonimning qo'llaridan tutib, ustozimning yonlariga yetakladim. Biz onalarimizni tanishtirdik. Ustozim esa oyilariga meni «eng yaxshi o'quvchim» - dedilar kiftlarimni silab. O'sha damda qanchalik xursand bo'lqanimni tasavvur ham qilolmaysiz. To'g'ri, avvaliga juda qattiqko'l bo'lib ko'ringan bo'lsa-da, keyinchalik ularning ajoyib inson ekanliklarini sezdim. Ko'pincha litseyga birga borib kelar edik. Ular o'zlarini yozgan she'rlaridan o'qib berardilar.

Biz ustozimdan ko'p narsani o'rgandik. Ayniqsa, din tarixi faniga juda qiziqamiz. Turli dinlar tarixi haqida ma'lumot berar ekanlar, ularning barchasini puxta o'rganganliklarining shohidi bo'lamiz. So'ngra dinlar o'rtasidagi o'zaro farqlaru o'xshashliklarni ko'rib chiqamiz. Savol-javoblar esa darsimizga yanada qizg'inlik bag'ishlaydi. Shu tarzda har bir dars o'zgacha ruhda o'tadi. Goho o'ylab qolaman. Shunday ustozlarning, insonlarning oldidagi qarzimni qanday ado etarkanman-a! Axir Hazrat Navoiy bekorga aytmaganlar:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamat bo'imasado oning haqin yuz ganj ila.

Nigora Muhammad Amin qizi,  
Interneshnl xauz - Tashkent litseyi  
10- «S» sinf o'quvchisi.

### BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rniда ishlatalmaydi...

Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.

## JUG'ROFIYADAN TEST SAVOLLARI

1. Bahrain situated in ....  
 A. Asia  
 B. Europe  
 C. Africa  
 D. Australia  
 2. Van is a lake of .....  
 A. Brazil  
 B. Norway  
 C. Turkey  
 D. Italy  
 3. Lisbon is the capital of .....  
 A. Spain  
 B. Portugal  
 C. France  
 D. Holland  
 4. Greenland belongs to .....  
 A. Denmark  
 B. England  
 C. USA

Gazetamizning aziz va mu h t a r a m o'quvchilari!  
 Bugungi darsimizdagi test savollari barcha bilishi shart va juda qiziqarli bo'lgan fan — j u g ' r o f i y a g a g a bag'ishlanadi.

- D. Scotland  
 5. Kito is the capital of .....  
 A. Bolivia  
 B. Ecuador  
 C. Chile  
 D. Honduras  
 6. Alpes are the .....  
 A. rivers  
 B. cities  
 C. mountains  
 D. continents  
 7. Ben Nevis is the highest mountain of .....  
 A. Africa  
 B. Great Britain

- C. Asia  
 D. France  
 8. Vermont and Rhode Island are the smallest ..... of USA.  
 A. cities  
 B. states  
 C. rivers  
 D. lakes  
 9. Austin is the capital of .....  
 A. Texas  
 B. Arizona  
 C. Arkansas  
 D. Florida  
 10. Nashville is the

Dear readers of our newspaper!  
 Today our lesson of English is about geography. Try to answer the following tests!

- capital of .....  
 A. New York  
 B. Alabama  
 C. Tennessee  
 D. California  
 11. Hollywood is situated in .....  
 A. Nevada  
 B. Nebraska  
 C. California  
 D. Vermont  
 12. Las-Vegas is situated in .....  
 A. Virginia  
 B. Nebraska  
 C. Nevada

- D. Utah  
 13. Atlanta is the capital of .....  
 A. Georgia  
 B. North Dakota  
 C. North Carolina  
 D. New Jersey  
 14. The Dead Sea situated in .....  
 A. Egypt  
 B. Jordan  
 C. Syria  
 D. Iraq  
 15. The Golan Hills are situated in .....  
 A. Holland  
 B. Syria  
 C. Germany  
 D. Saudi Arabia  
 Шохруҳ КАРИМБЕК тайёллади.

## TOPISHMOQLAR

Yozgan ishing bo'lar puxta,  
 Gap so'ngida qo'ysang ... (Nuqta)

Yakka bo'lsam yetaman ishsiz bekor,  
 Ko'payishsak tiklanib qolar devor. (G'ishit)

Tik boqolmay, ko'zlaringga to'lar yosh,  
 Qudratimga butun olam egar bosh. (Quyosh)

Kuz faslida daraxtni etganda tark,  
 Yerga tushib xazonga aylanar.... (Barg)

Haqiqatni ko'rmoq bo'lsang menga boq,  
 Qurani men deyman qora, oqni oq. (Ko'zgu)

Tog'ni teshib kirgan uzun yo'lak bor,  
 Biling do'stlar, atashadi uni ... (G'or)

Tunukasi yalt-yult qilib etar rom,  
 Xonadoning qor-yomg'irdan saqlar ... (Tom)

Ko'p yeganda tishlaringga berib pand,  
 Quraytirar shirin-shirin oppoq ... (Qand)

Jahongir MIRZAALIYEV.

Aziz qizlar, «Shuba» deb nomlanuvchi salatni o'rganib olsangiz, u juda mazali hamda sog'lig'ingizga soydalidir. Uyingizga mehmon kelmoqchi bo'lsa ham bu s a l a t n i tayyorlasangiz dasturxoniningiz o'zgacha tus oladi.

Masalliglar: 3-4 dona qizil sabzi, 3-4 dona qizil lavlagi, 3-4 dona kartoshka, 5 ta tuxum, mayonez, tuz va ozgina kashnich.

Tayyorlanishi: Kartoshka, sabzi, qizil lavlagi, tuxumlarimizni pishirib olamiz. Har birini norin xamiri to'g'ralgandek to'g'rab olamiz, tuxumni esa ularga nisbatan maydaroq to'g'raymiz. Masallig'larimizni

to'g'raganimizda har birini alohida idishlarga solamiz, aralashtirib yubormaymiz. To'g'rab olingach, chiroli patnisiga yoki laganga birinchি

mayonez surtiladi. Kartoshkani terganimizdan so'ng mayonez kamroq quyamiz. Shu tariqa masalliq tugaguncha terib, oxirida to'g'ralgan tuxumimizni sepamiz. Har bir masalliq terilganda ozgina-ozginadan tuz sepib chiqiladi.

Tayyor bo'lgan salatimiz tog'ga o'xshab chiqadi. Uning ustini o'zimizning qobiliyatimizga qarab ko'katlar yordamida bezatamiz.

Salatni patnis yoki laganning o'zida dasturxoniga qo'yamiz. Uni tortga o'xshab kesamiz likopchaga solib beriladi. Nafaqat mehmonlar, balki oila a'zolarimizga ham bu salatni tayyorlab bersak, yaxshi bo'ladi, chunki bu salat juda vitaminlarga boy salatdir.


Shahlo MUTALOVA.



to'g'ralgan qizil lavlagi solib tekis qilinadi, ustidan 1-2 osh qoshiq mayonez bir tekis qilib surtiladi, keyin sabzi ham shunday solinib ustidan yana

Aziz bolajonlar! Kundalik hayotimizda har kuni nonni iste'mol qilamiz-ku, lekin nonning hammamiz ham necha yoshdaligini bilmasak kerak? Noz - ne'matlarning

NON NECHA YOSHDA?



eng a'losi, sultonı - non. Mumtoz shoirlar, olamga mashhur olimu allomalar bu ne'mat xususida bejiz qalam tebratmaganlar. Xo'sh, non necha yoshda? U Misr chromlaridan ham qadimi. Nyu-York shahri

muzeyida bundan 3400 yil muqaddam yopilgan non namoyish etilmoqda. Yer yuzida non paydo bo'lishi bilan insoniyat taraqqiyotining va dunyoni tushunishning boshqacha, yanada yuqoriq bosqichiga ko'tarildi. «El

qadrini tug'ishgan bilar, non q a d r i n i yetishtirgan» degan hikmatli gap bor. Bir boshoq - 1,35 gramm don demakdir. Agar g'allazorda bir kvadrat metr joyda bittadan boshoq qolib ketsa, bir hektar maydonda 13,5 kilogramm don yo'qolgan bo'ladi.



Ko'ylagim, bor ko'ylagim,  
 Kiysam kelar o'ynagim,-  
 deydi Rohilaxon MUHAMMEDOVA.

# Tengdoshlarin



Boshlang'ich sinfdan yugoriga o'tgan o'quvchilarim juda qobiliyatli ekan. Ularning she'r va magololari-yu ertaklari tahririga unchalik muhtoj ham emas, nazarimda.

Ularning namunalari maktab devoriy gazetasida bir necha marotaba e'lon qilingan. Sizlar ham o'qib, baho bering bolajonlar.

Nasiba MIRSOATOVA,  
Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
187- maktabning  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

Bizni o'rab turgan muhit, ya'ni havo-suv, tuproq- osmon beg'ubor bo'lmog'i darkor. Chunki biz onatabiat qo'ynida yayrab havosidan to'yib- olamiz, ariq va suv ichamiz. Ona meva-chevalardan Katta shaharlardan, Navoiy, Olmaliqdan zavodlarning




## BEG'UBOR TABIAT

chiqayotgan qora tutunlarni ko'rib bahri diling xira bo'ladi. Axir bu tutunlar kelajak avlod sog'lig'iga zarar yetkazadi-ku. Nahotki, tutunlarni ushlab qoluvchi filtrlar o'rnatish qiyin bo'lsa. Yana ekologik talabga javob bermaydigan avtomobilarni aytmaysizmi?! U ham mayliku-ya, suvga, belgilanmagan joyga axlat tashlayotgan odamlarning ko'zi qayoqqa qaraydi? Tabiatni obodonlashtirish, atrof muhitni toza saqlash har birimizning qo'limizda. Kelinglar, o'z tevaragimizni ozoda tutaylik. Shunday tarzda barcha bab-baravar harakat qilsa, ekoliyamiz toza bo'ladi.

Umid AHMEDOV,  
5- sinf o'qituvchisi.



Sanjar Fayzullayev  
chizgan suratini «Tog' yonbag'ri qo'ynida» deb atabdi.



## YOSHI VA VANTARVARECAR



Kuni kecha maktabimizda O'zbekiston Qurolli kuchlari tashkil etilganining 10 yilligiga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu kechada yoshlarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-

moddasiga binoan «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchidir» shiori ostida olib borilayotgan sa'y-harakatlar o'z aksini topdi. Maktabimizdagi bayram kechada qatnashgan harbiy, mehnat faxriylarining chiqishlari, o'z hayot tajribalaridan so'zlagan maroqli suhbatlari bizni hayajonga soldi. Biz qariyalarimizni e'zozlashimiz darkorligini chuqur his etdik. Shuningdek, bayramga xos va mos bo'lgan sahna bezaklari, maktabimiz o'quvchilarining she'r va qo'shiqlari, qizlarning harbiycha raqslari yig'ilganlarga o'zgacha bir kayfiyat bag'ishladi. Qolaversa, bayramimiz 2001 yil 14 dekabrdan 2002 yil 14 yanvargacha o'tkazilgan «Ommaviy Vatanparvarlik oyligi»ning yakuni bo'ldi.

Madina IMOMBOYEVA,  
5- sinf o'qituvchisi.



## ODOB VA OFTOB

Dunyo go'zalligi  
Quyosh oftobi.  
Inson go'zalligi  
Uning odobi.

Oftob chechakdir  
Bog'u rog'larga.  
Odob chechakdir  
Ulug' zotlarga.

## TOG'AJONIM KO'RINMAS

Gullar so'lsa, tirilar,  
Qish ham kelib chekinar.  
Nega odam tirilmas,  
Tog'ajonim ko'rinas.



Quyosh nurin sochadi,  
Shamol qalbim ochadi.  
Endi gulim tirilmas,  
Tog'ajonim ko'rinas.

Bog'imdag'i gul so'ldi,  
Sabr kosasi to'ldi.  
Yolg'izlikka qalb ko'nmas,  
Tog'ajonim ko'rinas.

Gulhayo KARIMQULOVA,  
5- sinf o'qituvchisi.

Q a d i m - q a d i m  
zamonda, bilmadim qay  
tomonda, anhor bo'yida bir  
majnuntol o'sar ekan. Suv  
shunday mavjlanib oqarkanki,

MAJNUNTOL VA ANHORNING  
DO'STLIGI

to'kib, shoxlarini sindirib, suvga sakrab cho'mila boshlashibdi. Majnuntolga ozor bergen bolalarni ko'rgan anhor majnuntol unga termilib o'tirarken. Kunlarning birida u novdalarini astagina suvga tushiribdi. Suv ham shuni kutib turgandek novdalarni o'ynab, barglarni g'ubordan tozalabdi. Bundan majnuntol quvonib ketibdi. Shu payt bir to'da bolalar kelib majnuntolning novdalariga osilib, barglarini g'azablanibdi. Ularni oqizib nariroqqa eltilib qo'yibdi. Anhoring tezoqarligidan qo'rqqan bolalar shu-shu majnuntolga osilib cho'milmaydigan bo'lishibdi. Majnuntol esa anhoring g'amxo'rligidan quvonibdi. Ular doimo bir-biriga yordam qo'lini cho'zishga ahd qilishibdi.

Dilobar MIRSOATOVA,  
5- sinf o'qituvchisi.

• O'TGAN SONDAGI SO'ZLI  
TOPISHMOQLARNING JAVOBI.  
• Anagramma: Kongo-Kogon. Gazli - Lazgi. Vena - Neva.  
• Mali - Lima.

## TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

Muassislar:  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:** Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHIR HAY'ATI:** Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinosari), Po'lat MO'MIN, Mukarrama MURODOVA, Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

“Sharq” nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxsada ofset usulida  
bosildi.

Korxona manzili:  
“Buyuk Turon”  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № Г-71  
Gazetani  
Muhabbat  
MAXSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Temur RO'ZIMATOV

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08